

SURUNKALI XIRURGIK INFEKSIYA

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

RAVSHANOVA QORAKO'Z UCHQUN QIZI

Annotatsiya : Ushbu maqola surunkali xirurgik infeksiyon kasalligi kelib chiqish sabablari , klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash , zamonaviy texnikalardan foydalanishga mo'ljallangan .

Аннотация: Данная статья призвана описать причины хронической хирургической инфекционной болезни, ее клиническое лечение, применение современных методов лечения при этом заболевании, а также применение современных методик.

Abstract: This article is intended to discuss the causes of chronic surgical infectious disease, its clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Xirurgik infeksiyalarga u yoki bu xirurgik usullar yordamida davolash yoki profilaktika o'tkazilishi zarur bolgan odam organizmidagi infeksiyalar jarayonlari kiradi, bundan tashqari unga xirurgik kasalliklar, xirurgik aralashuvlar, jarohatlar va travmalarni og'irlashtiruvchi barcha infeksiyon jarayonlar ham kiradi. Ishlab chiqarishda yoki ro'zg'orda olingan yangi jarohatlar mikroorganizmlar manzari yiringli jarohatlar va yiringlagan operatsiya jarohatlari mikroorganizmlardan keskin farq qiladi. Ular mikroflorasi jarohat olingan sharoit bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda tuproq, havo, kiyim, ishlab chiqarishga doir materiallar, teri va shilliq qavatlardan tushgan mikroorganizmlar ham ahamiyatlidir. Xirurgik infeksiyalar natijasida, ayniqsa, og'ir kechuvchi va yuqori letallik beruvchi holatlarda, immun tizim faoliyati keskin pasaygan bemorlarda mikroskopik zamburug'lar ham aniqlaniladi, ammo asosiy kasallik fonida ularning tashxisi oshib bormoqda. Isxakova X.I. va muallifdoshlarining fikriga ko'ra, xirurgik klinikalarda kandidozlarning asosiy qo'zg'atuvchisi sifatida *C.albicans* maydonga chiqadi, kam hollarda esa *C.tropicalis* va *C.pseudotropicalis*lar ajratib olinadi. Bunday fikr Venun S. ilmiy tadqiqotlarida ham ko'rsatib o'tilgan. Bu olimlar fikricha, biologik ashyoda achitqisimon zamburug'lar 10^3 va undan yuqori miqdorda ajratib olingandan so'ngina yiringli yallig'lanish patologiyasining etiologik sababchisi sifatida ko'rsatish mumkin. Qorin bo'shlig'i xirurgiyasida *C.parapsilosis* qo'zg'atuvchisining uchrashi Tonomo Ketel. Ishlarida bayon etilgan. Odam organizmida o'tkaziladigan turli operativ aralashuvlardan so'ng xirurgik jarohatlarda rivojlanadigan infeksiyalar, ya'ni

operatsiyadan so'ngi yiringlashlar eng jiddiy asoratlarni sifatida hozirgi davrgacha qolayotganligi ularni alohida sharh qilish uchun asos bo'ldi.

Operatsiyadan keyingi infeksiyalarga qarshi olib borilayotgan samarali kurash natijasida ularning uchrash darajasi, ulardan kelayotgan iqtisodiy zarar birmuncha kamaygan. Operatsiyadan keyingi yiringlashlardan ko'rilayotgan iqtisodiy zarar ham kam emas. Keyingi yillarda operativ jarohatlarning mikroorganizmlar bilan zararlantirish ehtimoli darajasining yuqoriligiga qarab, xirurgik aralashuvlarni klassifikatsiya qilish tizimi umum tan olingan bo'lib bormoqda. Unga ko'ra, xirurgik aralashuvlar "toza", "shartli toza", "iflos" operatsiyalarga bo'linadi. Birinchi ko'rsatilgan ikkita holatda operatsiyadan so'ngi yiringlashlar juda past bo'lsa, uchinchi holatda bunday ehtimollik keskin oshadi.

Operatsiyadan keyingi jarohatlarning yiringlash inonbalaridan bo'lgan ekzogen infeksiyalarning tushish yo'llarini o'rganish va ularga qarshi turli profilaktik choratadbirlarni ishlab chiqish, yangi yoki mukammallashtirilgan aseptik yo'llarni taklif etish dolzarb muammoligicha qolmoqda. Shuningdek, operatsion jarohatlardan ajratib olingan qo'zg'atuvchilar hamda operatsiya xonasi havosi, xirurglarning qo'llari, xirurgik asboblari, tikish materiallari va hoshqalardan ajratib olingan mikroorganizmlarning biologik xususiyatlarini solishtirish, ushbu mikroorganizmlar xususiyatini dinamikada o'rganish va solishtirish muammolari ham klinik bakteriologiya uchun o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Xirurgik infeksiyalar va yiringli yallig'lanish infeksiyalarida patogen va shartli-patogen mikroorganizmlar ko'p miqdorda aniqlanishi bilan ajralib turgan. Ularning biologik xususiyatlari turlicha ekanligi aniqlanib, ko'pchilik holatda bu xususiyatlar, ayniqsa, patogenlik, virulentlik, gemolitik faollik, letsitinaza va koagulaza hosil qilish xususiyatlari, patologik jarayon rivojlanishi bemor organizmining holatiga bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. Keyingi yillarda xirurgik infeksiyalarning asosiy etiologik agenti bo'lgan *S.aureus* ning shartli patogen grammanfiy tayoqchalar va koagulazamanfiy stafilokokklar tomonidan siqib chiqarilayotgani e'tirof etilgan. Xirurgik infeksiyalarda mikrobiologik usul eng asosiy ko'p axborot beruvchi va ishonchli usul sifatida e'tirof etilgan.

Organizmida xirurgik infeksiyalar rivojlanmasligi (abscess, flegmona, furunkul, karbunkul, panarititsiy va boshqalar), shuningdek turli xil operativ aralashuvlardan so'ng jarohatning yiringlanmasligi uchun barcha choratadbirlar shu yo'nalishlar ichida amalga oshiriladi. Agar o'tkir xirurgik infeksiyalarda asosiy o'rinda qo'zg'atuvchi tushishini oldini olish va organizm immun tizimi faoliyatini tiklash muhim o'rin tutsa, operatsiyadan keyingi mikroorganizmlar bilan asoratlantirishning oldini olishda asosiy o'rin tashkiliy tadbirlarga va qo'zg'atuvchilarga qaratilgan tadbirlarga to'g'ri keladi.

Антибиотиклар билан davolash samaradorligi o'z vaqtida belgilanganligi quyidagi omillarga bog'liq: o'tkir xirurgik infeksiyaning klinik tashxisi, qo'zg'atuvchisini ajratib, identifikatsiya qilish hamda lining antibiotiklarga sezgirligini aniqlash; har bir bemor uchun individual, uning uchun faol va o'z navbatida kam zaharli bo'lgan preparatni tanlash; antibiotikning optimal dozasi aniqlash, shu qo'zg'atuvchi uchun infeksiya o'chog'ida minimal bosib turuvchi konsentratsiyadan oshuvchi, konsentratsiya qila oladigan organizmga kiritish usulini belgilash; qo'llanilayotgan antibiotikning bo'lishi mumkin bo'lgan yonaki ta'sirini bilish va hisobga olish; qo'zg'atuvchiga qarshi samarasini oshirish va uning ta'sir spektrini kengaytirish maqsadida preparatlar kombinatsiyasini qo'llashni bilish.

Abssess, flegmona, furunkul, karbunkul, panaritsiy va boshqa shu kabi o'tkir xirurgik infeksiyalarda antibiotikoterapiya va antibiotikoprofilaktika profilaktik tadbirlarning asosini tashkil qilishiga amin bo'ldik. Bunda asosiy o'rin antibiotikni bemorga mos tanlanishi, uning dozasi, organizmga kiritish yo'llari, boshqa preparatlar bilan kombinatsiyada qo'llanishi, farmakodinamikasi va farmakokinetikasi mikroblarning antibiotiklarga sezgirligini aniqlash usullari, polirezistent shtammlarning paydo bo'lishi kabi muammoli masalalarga ajratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдухалилова Г.К. Адгезивные свойства вариатов *S.typhi*, циркулирующих на территории Узбекистана //Инфекция, иммунитет и фармакология. - 2004. - №2. - 107-109 б.
2. Агалжаниян В.В. Комплексное лечение больных с гнойновоспалительными процессами крупных суставов нижних конечностей. Автореф. дисс. д.м.н. Пермь. - 1988. - 30 б.
3. Актуальные проблемы эпидемиологии и профилактики послеоперационных инфекций /Янов Ю.К., Ерюхин И.А., Новинков А.Г., Мираненко А.Н. //Вестн. хирургии им. И.И.Грекова - 1997. - № 3,- 106-109 б.